

ONA TILI TA'LIMIDA SO'Z BIRIKMALARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QITISH (8-SINF DARSLIGI ASOSIDA)**Jo'raxonova Dinora**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisiligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7432884>

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'z brikmasi mavzusi innovatsion texnologiyalar vositasida o'quvchilarga o'rgatish ko'rsatildi. Va ba'zi texnologiyalar orqali namunalar berildi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, so'z brikmasi, klaster, Venn diagrammasi, "Kubik" metodi, tafakkur, mantiqiy fikr

ОБУЧЕНИЕ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (НА ОСНОВЕ УЧЕБНИКА ДЛЯ 8 КЛАССА)

Аннотация. В данной статье было показано, как обучать студентов теме лексики с помощью инновационных технологий. И образцы давались через какие-то технологии.

Ключевые слова: инновационная технология, объединение слов, кластер, диаграмма Венна, метод «Кубик», мышление, логическое мышление.

TEACHING PHRASES IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES (BASED ON A TEXTBOOK FOR GRADE 8)

Abstract. This article showed how to teach students the topic of vocabulary using innovative technologies. And the samples were given through some kind of technology.

Keywords: innovative technology, word combination, cluster, Venn diagram, Cube method, thinking, logical thinking.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davr, axborot texnologiyalari asrida nafaqat ona tili fanida balki boshqa fanlarda ham bilimlarni to'g'ridan to'g'ri berish emas, o'quvchini o'yga toldiradigan mushohada yuritadigan muammoli tarzda berishgina ko'zlangan maqsadga eltadi, bizningcha. Bu o'rinda A. G'ulomov va M. Qodirovlarning ham fikrlari o'rinlidir: "O'quvchilarga ona tili fanidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o'quvchi shu jarayonning ishtirokchisiga tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi". Va bizning bosh maqsadimiz sanalgan erkin va ijodiy fikrlaydigan, o'z fikr mahsulini nutq sharoitiga mos tarzda og'zaki va yozma bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalay olmaymiz.

Mana shunday vaziyatda pedagogika ham o'zining uzoq rivojlanish yo'li davomida yangi- yangi usullarni izlab keldi. Endilikda oldimizda ikkita savol turadi: "Nimani o'qitish?", "Qanday o'qitish". "Nimani o'qitish" degan savolga darsliklarimizdagi grammatikani sodda va tushunarli qilib, hayotiy misollar yordamida soddalashtirish javob bo'lsa, "qanday o'qitish" shu narsalarni o'quvchining erkin va ijodiy fikrlashiga yo'naltirilgan usullarda olib borish javob bo'ladi.

Ona tili darsining samaradorligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashdir. Bunda o'quvchi yoshi va ularning faoliyati bilan bog'liq jihatlari e'tiborga olinishi, tanlanayotgan metodlar o'quvchini fikrlashga va tafakkur orqali muammolarni hal etishga qaratilishi lozim.


Maktabda soʻz birikmasi boʻyicha 5- va 8-sinf ona tili darsligida maʼlumotlar bor. Batafsilroq 8-sinfda toʻxtalgan. Biz shu asosida soʻz brikmasini oʻqitishni 1-2 ta metodlar vositasida koʻrsatib oʻtamiz.

Dastavval soʻz birikmasi haqida oʻqituvchi doskadan foydalanib ozroq maʼlumot beradi. Keyin soʻz birikmasining turlari boʻyicha “Klaster” metodidan foydalanib oʻquvchilarda mavzuga oid bilimlar hosil qilinadi.


“Klaster” (gʻuncha, toʻplam, bogʻlam) puxta oʻylangan strategiya boʻlib, uni oʻquvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlarda qoʻllash mumkin. Metod yordamida oʻquvchilar topshiriq boʻyicha fikrlarini klaster tarzida quyidagicha ifodalaydilar:

Soʻz birikmasining uchta turi boʻyicha fikrlar toʻldiriladi.


1.



2. Oʻquvchilarga shu tarzda klaster tuzib, namuna koʻrsatamiz, keyin ular shu asosida fikrlab tarmoqlarni toʻldiradilar va soʻz brikmalari hosil qiladilar.




3.



Mana shunday metodlar vositasida o'quvchi mantiqiy fikrlagan holda so'z brikmasi bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar. Endi olgan bilimlarini taqqoslash yo'li bilan yanada mustahkamlaymiz. 8-sinf darsligida so'z brikmasi va qo'shma so'zni farqi berilgan. Biz so'z brikmasi va qo'shma so'zni o'xshash va farqli jihatlarini Venn diagrammasi yordamida ko'rib chiqamiz.

So'z brikmasi


qo'shma so'z



Ushbu texnologiya vositasida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, predmet, hodisalar va shu kabilarning ham farqi ham o'xshash jihatlarini aniqlash ko'nikmalari rivojlanadi.

“Kubik” metodi yordamida o’quvchilar mavzuni qay darajada tushunganlarini tekshiramiz.

“Kubik” metodi: “Metod turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o’rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning oltita qirrasida o’rganiladigan mavzu(muammo)ni chuqur tahlil qilishga yordam beradigan tushuncha(yo’nalishlar) mavjud. Metod mohiyatiga ko’ra kubikning oltita qirrasida quyidagi ko’rsatmalar o’z ifodasini topadi.



Izoh: “Kubik”ning olt qirrasidagi ko’rsatmalar quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. **Tasvirlang!** Predmetni diqqat bilan ko’zdan kechirib, uning nimaligini tasvirlab bering, tasvirlash jarayonida uning shakli, rangini aniq yoritishga harakat qiling.
2. **Taqqoslang!** Taqqoslash asosida predmetning nimaga o’xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!
3. **Izohlang!** Predmetning bunday tuzilma hajm, shakl, rangga egaligining sabablarini tushuntiring! predmet sizni nimalar haqida o’ylashga majbur etyapti? Hayolingizga erk bering!
4. **Tahlil qiling!** Predmet yasaliş jarayoni qanday? (Predmetning yasalişini bilishingiz shart emas, buni o’ylab toping!)
5. **Qo'llang!** Predmetdan siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?
6. **Asoslang!** Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalillar topishga harakat qiling!

Metod o’quvchi(talaba)larni muayyan muammo(mavzu) ni olti tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat bilimlarni chuqur o’zlashtirishga, muammo yechimini tezroq topishni tezlashtiradi.”

Ushbu metodni so’z birikmasi mavzusida qo’llasak va to’g’ri tashkil qila olsak yaxshi samara beradi.

Namuna: Mavzu: so’z brikmasi

1. **Tasvirlang!** Ikki va undan ortiq mustqil so’zning grammatik va ohang jihatdan birikishi
2. **Taqqoslang!** Qo’shma so’zga o’xshaydi(farqlari ham bor), gapdan keskin farq qiladi.
3. **Izohlang!** So’z birikmasi nutqimizni aniqlashtiradi, axborotlarni tushunarli qilishimizda katta yordam beradi.
4. **Tahlil qiling!** So’z birikamasi uch xil yo’lda yasaladi: ohang, qo’shimcha va ko’makchilar; qaratqich va egalik.

- 5. Qo'llang!** Kitob umumiy, opamning kitobi, aniqlik kiritib, kimga qarshli ekanligini bildiriyapti. Yoki badiiy kitob.
- 6. Asoslang!** So'z brikmasi orqali aytmoqchi bo'lgan fikr tinglovchiga aniq va tushunarli bo'ladi. Masalan, Qalam deyilsa qandayligi yoki kimga qarshli ekanligi, qora-qalam, o'quvchining qalami.

Ushbu metod ham o'quvchilarning mavzuni o'tish jarayonida topqirligi, ziyrakligi, solishtirish taqqoslash orqali tanqidiy fikrlashi kabi aqliy faoliyatlarini o'stirib, mavzu yuasidan bilimlarni xotirada yaxshi qolishiga ko'maklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz o'quvchilarni imtihonga emas, hayotga tayyorlashimiz lozim. Ularni bir qolipga solib faqat qoida yodlatmasdan, ularni erkin, ijodiy, mantiqiy fikrlash orqali tafakkurini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish asosiy maqsadimizdir. Ana shu maqsadga esa tog'ri tashkil qilingan dars, tog'ri tanlangan metodlar yordam beradi.

REFERENCES

1. А.Фуломов, М.Қодиров, Она тили ўқитиш методикаси, ўқув қўлланма. Тошкент, “Университет”-2001.
2. Qodirov M, Ne'matov H, Она тили, 8-sinf uchun darslik, Toshkent, “Cho'lpon” nashryoti-2019.
3. Nizomiy Nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. Toshkent- 2013. 38-bet.